

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINF DAN TASHQARI ISHLAR

To'xtayeva Aziza Davron qizi

GulDPI "Pedagogika" fakulteti 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1534522>

*Annotatsiya.* Boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarning o‘rnini, ahamiyati va ularni tashkil etish metodikasi keng yoritilgan.

*Kalit so‘zlar:* boshlang‘ich sinf, matematika, sinfdan tashqari ishlar, to‘garak, viktorina, mantiqiy fikrlash, metodika, ijodkorlik.

### EXTRA-CLASS ACTIVITIES IN MATHEMATICS IN ELEMENTARY GRADES

*Abstract.* The role, importance and methodology of extracurricular activities in mathematics in primary grades are widely covered.

**Keywords:** primary grade, mathematics, extracurricular activities, circle, quiz.

### ВНЕКЛАССНЫЕ ЗАНЯТИЯ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Аннотация.* Подробно освещены роль, значение и методика организации внеклассной работы по математике в начальных классах.

**Ключевые слова:** начальная школа, математика, внеклассная работа, кружок, викторина, логическое мышление, методика, творчество.

Ta'lim tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biri — boshlang‘ich sinflardir. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan munosabati shakllanadi, fanlarga qiziqishi ortadi. Matematika fani esa o‘quvchining tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi asosiy fanlardan biridir. Bu bosqichda dars mashg‘ulotlari bilan bir qatorda, sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati ham beqiyosdir.

Bunday ishlar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, fan bo‘yicha chuqur bilim olish va ijodiy yondashuv kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning maqsadi, usullari va ularning natijadorligi tahlil qilinadi.

#### 1. Sinf dan tashqari ishlarning maqsadi

Boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda matematika faniga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularni mustaqil fikrlashga, izlanishga, ijodiy yondashishga o‘rgatishdan iborat. Bu orqali o‘quvchilarda bilimni mustahkamlash, nazariyani amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlanadi.

#### 2. Sinf dan tashqari ishlarning vazifalari

- o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish;
- darsdan tashqari vaqtida ham fan bilan shug‘ullanish imkoniyatini yaratish;
- iqtidorli bolalarni aniqlash va rivojlantirish;
- guruhiy ishlash, jamoada fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarda mustaqil ishslash, mas’uliyatni his qilishni o‘rgatish.

#### 3. Sinf dan tashqari ishlarning shakllari

Sinf dan tashqari ishlar turli shakllarda olib borilishi mumkin.

Ularga quyidagilar kiradi:

- matematik to‘garaklar: darsdan so‘ng o‘quvchilarning bilimlarini chiqurlashtirishga xizmat qiladi.

- matematik kechalar: fan haftaligi doirasida tashkil etilib, ko‘ngilochar va ilmiy tadbirlar uyg‘unlashadi.

- mantiqiy o‘yinlar va musobaqalar: o‘quvchilarning aqliy faolligini oshiradi.

- matematika viktorinalari va tanlovlari: sog‘lom raqobat muhitini yaratadi.

- ko‘rgazmalar: o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini namoyon etish imkonini beradi.

#### 4. O‘qituvchining roli

Sinfdan tashqari ishlarda o‘qituvchi – tashkilotchi, yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi rolini bajaradi. O‘qituvchi quyidagilarga e’tibor qaratishi zarur:

- o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish;
- faoliyatni bosqichma-bosqich rejalshtirish;
- rag‘batlantirish va qiziqtirish metodlaridan foydalanish;
- har bir o‘quvchining individual qobiliyatini hisobga olish.

#### 5. Amaliy faoliyatdan misollar

Masalan, 2-sinf o‘quvchilari bilan “Qo‘sish va ayirish” mavzusini mustahkamlash maqsadida “Topishmoqlar dunyosi” deb nomlangan o‘yin o‘tkaziladi. Har bir to‘g‘ri yechim uchun o‘quvchiga yulduzcha beriladi. Eng ko‘p yulduzcha to‘plagan bola faxriy yorliq bilan taqdirlanadi. Yoki 4-sinfda matematik viktorina o‘tkazilib, o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linib, savollarga javob berish orqali ball to‘plashadi. Bunday tadbirlar bilimni mustahkamlash bilan birga, o‘quvchilarda jamoaviylik, faoliyik va liderlik fazilatlarini rivojlantiradi.

#### 6. Metodik yondashuvlar

Metodik jihatdan sinfdan tashqari ishlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- tarbiyaviylik va o‘quvchanlik uyg‘unligi;
- qiziqarli va motivatsion yondashuv;
- tashkiliy soddalik va mazmunan boylik;
- o‘quvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirish.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi.

1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarini hisobga olgan holda o‘tkaziladi.

2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o‘quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o‘quvchilarning individual talablarini qanoatlantirish maqsadida o‘tkaziladi.

3. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkazish shakliga ko‘ra darslardan farq qiladi va ko‘pincha qiziqarlilik xarakteriga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar uyushtirishdagi dastlabki qadam qiziqarli matematika soatlari va daqiqalaridir. O‘quvchilar qiziqarli matematika soatlari odatdagagi darslarga qaraganda kamroq charchaydilar va ko‘tarinki ruh bilan ishlaydilar.

Bunday mashg‘ulotni tashkil qilish va jihozlash qiziqarli va ravshan bo‘lishi kerak. Bu malakalarda qiziqarli matematikaga doir ko‘rsatma qurollar: sanash jadvallari, figuralarni sanash, devoriy oyna formasidagi o‘yinlar, stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar, labirintlar, kartondan geometrik figuralar yasash, krossvordlar va boshqalar o‘quvchilarga katta yordam beradi.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinflarda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlar – o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda, ularni bilim olishga, mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyat o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, balki ularning nutqini, axloqiy fazilatlarini, jamoa bilan ishslash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. O'qituvchining sinfdan tashqari faoliyatni puxta rejalshtirishi, ijodiy yondashuvi, har bir bolaga individual yondashuvi yuqori natijani kafolatlaydi. Shu bois, boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu borada muntazam izlanishda bo'lishlari zarur.

### REFERENCES

1. Abduqodirov A., Qayumov M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Yoqubova N. Ilk matematika ta'limida innovatsiya belgilari. Samarqand: Ilm ziyo, 2020.
3. G'ofurova G. Boshlang'ich ta'limda fanlararo bog'liqlik asoslari. Toshkent: Fan, 2018.
4. Karimova Z. Matematika fanidan darsdan tashqari ishlar. Toshkent: Yangi asr avlod, 2021.
5. Tojiyeva Z.G` va boshqalar. boshlang'ich sinflarda matemetikadan dars samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanish. –T.: TDPU, 2008.